

## **“ONA TILINI MAKTABLARDA O’QITILISHINING YANGICHA METOD VA USULLARI”**

*Kamaljonova Go'zal Axmedjonovna*

*Jizzax Viloyati Pedagogik Mahorat Markazi O'zbek Tili Fani Metodisti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili fanini o'qitishda zamonaviy va innovatsion metodlardan foydalanish hamda ushbu metodlarning ahamiyati haqida so'z boradi va bu borada kerakli tavsiyalar beriladi.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается использование современных и инновационных методов в обучении родному языку и значение этих методов, а также даются необходимые рекомендации в связи с этим.*

***Kalit so'zlar:** Zamonaviy metodlar, kommunikativ ko'nikma, axborot texnologiyalari, didaktik o'yinlar*

***Ключевые слова:** Современные методики, коммуникативные навыки, информационные технологии, дидактические игры.*

Bugungi rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizda o'quvchiyoshlarni ta'limga to'g'ri yo'naltirish juda katta ahamiyatga ega. Zero, yurtimizning kelajagi yoshlarimiz qo'lida. Ma'lumki, o'quvchilarimizning ko'p vaqtlari maktabda o'tadi. Ularning ta'lim olishini to'g'ri tashkil etish esa, biz o'qituvchilarning zimmasidagi yuksak burchdir. Ta'lim jarayonida darslarni tashkil etishda an'anaviylikdan chekinib, turli interfaol usullar, innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa o'quvchi-yoshlarning ta'limga qiziqishlari oshishi barobarida, ta'lim sifati ham ko'tariladi. Ona tili darslarida o'quvchilarga beriladigan bilimlar keyingi yillarda asosan nazariy asosga qurilayotganligi amaliy malakalarning sayozlashuviga olib kelmoqda. Darsda asosano'rganilayotgan qoidani yod oldirish va unga darslikdan

misol keltirish va mashq ishlash bilan cheklanilmoqda. Bu esa o'quvchi-yoahlarni darsdan zerikishlariga sabab bo'lmoqda.

Dars davomida faqat darslik bilan ishlanmoqda. Oqibatda o'qituvchi darslik o'qituvchisi, o'quvchi darslik o'quvchisi bo'lib qolmoqda. Shu sababli o'quvchilar darslikdan tashqari talablarni bajara olmayaptilar, hayotning o'zi misol va qoida ekanligini anglab yetmayaptilar. Shunday ekan, amaliy bilimni shakllantirish asoslarini ishlab chiqishga diqqat qaratish lozim. Buning uchun darsda faqat mashqlar bilan cheklanmay, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, lug'at ustida ishlashga o'rgatish, ularda to'g'ri talaffuz normalarini shakllantirish hamda fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berish kerak. Hozir o'quvchilarni har bir darsda faol ishtirok etishga undovchi noan'anaviy dars metodidan foydalanilyapti. Bu dars metodi hozirda turli joylarda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatyapti.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga ta'lim berish, zamonaviy hamda samarali innovatsion metodlardan foydalanish qolaversa dars jarayonida turli AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilar o'rtasida fanga, izlanishga, tadqiqotga yondashish, bilimlardan samarali foydalanishga yordam beradi. Bunday natijaga erishish uchun esa albatta dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish zamonaviy axborot texnologiyalarini birlashtirish talab etiladi. Bu jarayonda o'qituvchi shaxsning rivojlanishi, ta'lim va tarbiyani shakllantirish uchun sharoit yaratadi va shu bilan birga boshqaruv, yo'l-yo'riq ko'rsatish funksiyalarini ham bajaradi. O'qitish jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning bilimlari, tajribasi, interfaol usullari o'quvchilarga malakali, ilg'or ko'nikmalar beradi.

Ona tili fani o'qitishda darsda psixologik jarayonlar ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchida pedagogik mahorat bilan birga psixolog bo'lmog'i lozim. Bola psixologiyasini yaxshi tushungan o'qituvchi haqiqiy pedagog bo'la oladi. Har bir darslarda psixologik hamda innovatsion metodlarga vaqt ajratish darsning qiziqarli bo'lishiga, o'quvchining e'tiborini o'ziga tortishga, mavzuni yaxshi tushinishga

qo'pol qilib aytganda uxlayotgan o'quvchining uyg'otishga juda katta yordam beradi va shu bilan birga o'quvchi qachon yana shu darsga kirar ekanmiz degan fikrni uyg'otishga sabab bo'ladi. Quyida dars davomida qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta zamonaviy metodlar haqida to'xtalib o'tamiz.

1. "Kim hakam" Ona tili darsida o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida "Kim hakam" o'yin metodini qo'llash ham yaxshi samara beradi. Bunda o'quvchilardan diqqat, tezkorlik, hozirjavoblik talab etiladi, O'quvchi fikrini jamlashga harakat qiladi. O'qituvchi tomonidan ma'lumotlar tezkorlik bilan o'qiladi. Bunda har bir guruh a'zolari to'g'ri ma'lumotlar uchun- "qizil kartochka", noto'g'ri ma'lumotlar uchun-"sariq kartochka"larini ko'tarishadi. Natijalarni aniqlab boorish uchun har bir guruhga nazoratchilar biriktiriladi. Bunda deyarli barcha o'quvchilar qatnashadilar va harakat qiladilar. Bu jarayonda o'quvchilar nimadir o'rganadilar. Bunda hamma harakat qiladi, a'lochi ham, o'rta o'quvchi ham, ulgurmovchi ham sergak tortadi. Chunki sinfda o'tirgan o'quvchilar yaqinida o'yinlarolamidan kelgan. Agar o'qituvchi ta'limiy o'yinlarni o'ylab qiziqarli qilib o'tkazsa bolada «hayratlanish» tuyg'usi uyg'onadi, ta'lim-tarbiyaning ana shu jarayoni o'quvchilarning yodidan chiqmaydi va o'yindan ko'zda tutilgan maqsadshakllana boradi. O'yinlar ikki xil ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'limiy va tarbiyaviydir.

Hozirgi vaqtda izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yin bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. Didaktik o'yinli dastur yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimni sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli

o'yinlarga tayyorlashi, ular muvafaqqiyatli chiqqanidan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Chunki, o'quvchilar didaktik o'yin darslarida ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishlari zarur. Bolaning o'qituvchini aytganini takrorlab loqayd o'tirganidan ko'ra, qanday bo'lsa ham fikr yuritgani mehnat qilgani ma'qul.

“Ta’rif va ijodkor” usuli. Bu usuldan foydalanishda sinf guruhlariga bo’linib, oldindan topshiriqlar beriladi. Guruhlar shartli ravishda nomlanadi, masalan, “Ta’rif beruvchilar” va “Ijodkor” guruhi. Birinchi guruh ikkinchi guruhga ta’riflarni aytadi. Shundan so’ng guruhlar ushbu ta’rif qaysi ijodkorga tegishli ekanligini topadi. Agar birinchi berilgan ta’rifdan so’ng darrov bu ta’rifning qaysi yozuvchi yoki shoirga tegishli ekanligini topishsa, - 5 ball, ikkinchi ma’lumotdan so’ng topishsa, - 4 ball va uchinchi urinishda topsalar - 3 ball yig’ishadi. O’qituvchi ta’rif qaysi ijodkorga tegishli ekanligini topgan guruhdan yana ijodkor hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar qo’shimcha qilishini so’raydi va baholab boradi. Bu metod orqali har bir o’quvchi ishtirok etish imkoniyatiga ega bo’ladi. Masalan, 8- sinf adabiyot darsida bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin: “Ta’rif va ijodkor” usuli orqali o’quvchilar mavzuni mukammal o’zlashtiribgina qolmay, o’qituvchi ularni faollikka, topqirlikka o’rgatadi va oqilona baholay oladi.

“Chala xat” -metodidan o’qituvchilarimiz shoir va yozuvchilarimiz hayoti va ijodini, she’r va g’azallarini o’rganishda qo’llash mumkin. Sharti shuki, darsligimizda berilgan matn, g’azal va she’rlarning ba’zi joylarini tushurib qoldirasiz. Metodni qo’llashdan oldin esa mavzuni to’liq o’rganishni o’quvchilarga uy vazifa topshirig’i sifatida berasiz.

“Rolli o’yin”- metodidan adabiyot darslarida yozuvchilarimiz yozgan drammatik asarlarni dars jarayonida sahnalashtiriladi. Buning uchun o’quvchilardan asarni to’liq o’rganib chiqish talab qilinadi. Bu o’quvchilarda aktyorlik mahoratini shaklantiradigan metodlardan biridir.

“Muammoli vaziyatlar”- metodining juda ko’p turlari mavjud.

“Keys stade”, “FSMU” bularning barchasi muammoning kelib chiqishi, sabablari va yechimini o’rganadi. Ko’pincha bu metodni adabiyot darslarida qo’llaymiz. Yozuvchi yozgan asarlarning ibtidosi va intihosidagi muammoli vaziyatlarni o’qituvchi va o’quvchi hamkorligida o’rganib chiqiladi va xulosa tariqasida so’z o’quvchilarga beriladi. Bu esa o’quvchilar qalbidagi hayot atalmish buyuk bir jarayonga o’zining munosabatini bildirishga undaydi. To’g’ri va egri yo’l nima ekanini tushunishga yo’l ko’rsatadi.

Darsda interaktiv usullar qo'llashni shunday tashkil etish kerakki, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hisoblanadi. O'quvchilarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi.

Sanalib o'tilgan metodlarimiz ayniqsa, ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu metodlar orqali o'quvchilar faqat bilim olib qolmasdan olgan bilimlarini kelajakda qo'llay olish malakasini rivojlantiradi. Hayotda o'ziga ishonch bilan qarashga o'rganadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktik-uslubiy masalalari. Toshkent, "Tafakkur", 1998 yil.

2. Yangi pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari, muammolari va yechimlari. Toshkent, 1999 yil.

3. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006-yil

4. I. H o l m u r o d o v . Ona tili fani bo'yicha o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2006 yil, 2-son